

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI
ABDURAIMOV SHERALINING
MILLIY G'OYA FANINI O'QITISH METODIKASI FANIDAN**

REFERAT

**MAVZU: *"MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI"* FANINI
O'QITISHNING SHAKLLARI, USULLARI VA VOSITALARI**

Bajardi: Abduraimov Sh.

Tekshirdi: dotsent Muhammadiyeva O.

TOSHKENT-2013

**MAVZU: “MILLIY G’OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI” FANINI
O`QITISHNING SHAKLLARI,USULLARI VA VOSITALARI**

REJA:

Kirish.

- 1.“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”ni o’qitish metodlari
- 2.Mashqlar bajarish jarayonida o’qituvchi va o’quvchi
faoliyati va zarur vositalar
3. “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”ni o’qitishni shakllari

Xulosa .

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Diyorimiz mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyatidan rivojlangan davlat sifatida o'rin olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar fidoyi insonlarni tarbiyalab yetishtirishda ta'lim muassasalarida o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

Ta'limda chuqur islohotlar o'tkazmay turib totalitar tuzumning mafkurasi bilan sug'orilgan o'quv yurtlarida buni amalga oshirib bo'lmasligi hammaga ayon edi. Shu sababli Prezidentimiz Islom Karimov ta'limdagi islohotlarga katta e'tibor bilan qaratdi. Shuningdek, milliy g'oya mustaqillik va taraqqiyot yo'li ekanligi, bu borada amalga oshiriladigan ishlarni aniq tizimga va tartibga solish zarurati paydo bo'ldi va 2001 yildan boshlab yurtimizning barcha ta'lim muassasalarida "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani kiritildi. Shu bilan birgalikda bu fan mustaqil fan sifatida usul va vositalari ishlab chiqildi.

"Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish hozirgi zamon ta'lim jarayonida katta o'rin tutib, eng avvalo o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

"Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari"ni o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati, bir-biriga hurmat kabi fazilatlarini tarbiyalash va boshqalar kiradi.

"Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari"ni kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo'naltirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish, ularni vatanparvar qilib tarbiyalash" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”ni o’qitish metodlari

“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”ni o’qitish jarayonida o’qitish materialining mazmuni va o’quv sinfining katta – kichikligiga qarab turli metodlardan turli o’rinlarda foydalanish mumkin.

“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fanini o’qitishda kuzatish. O’quvchilar bilan faktlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega. Natijada o’quvchilar quyidagi umumiy xulosaga keladilar: qaralgan holda kuzatish metodini qo’llash, shuningdek, o’qituvchi tomonidan bilimlarni bayon qilishga doir bosqichlarda ham katta ahamiyatga egadir.

Suhbat metodi.

Suhbat metodida suqrotona savol – javob usuli hozirgacha eng samarali ta’lim usullaridan biri sifatida qo’llaniladi. Bunda o’quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to’g’ri so’zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o’rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o’quvchining mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto’g’ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo’liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi.

Umuman suhbat metodi bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin:

1. Savol – javoblar orqali o’quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.
2. O’rganilayotgan mavzuning mazmunini o’quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o’quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo’lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi.
3. O’quvchini faol muloqatga olib kirish. Bunda, asosan, rag’batlantirish usullaridan foydalaniladi.

4. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek, o'quvchidek tutib, savollar berib boradi.
5. O'quvchining to'g'ri fikrlarini rag'batlantirish orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish.
6. O'quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.
7. O'quvchining xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z xatolarini o'zi tuzatishga yo'naltiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimiga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqat madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

Bayon qilish metodi.

Bayon qilish metodi ikki turga bo'linadi:

- a) ko'rgazmali bayon qilish. Bunda o'qituvchi bilimlarni bayon qilish bilan birga uning xaqiqiyligini misollar orqali namoyish qiladi.
- b) muammoli bayon qilish. Bunda o'qituvchi materialning muammosini qo'yadi, uni hal etish yo'llarini ko'rsatadi, asoslaydi va isbotlaydi.

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy – tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilardir:

*o'quvchiga notanish faktning mavjud bo'lishi;

*vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi, o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga hakorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligi hamda o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishdir. Muammoli o'qitishni tashkil etishning shartlari:

Birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.

Ikkinchi shartida muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni yechish usulini tanlash ikoniyati ko'zda tutiladi.

Uchinchi sharti ta'lim oluvchining subektiv mavqei, ularning bilish maqsadlarini anglab etishi va qaror qabul qilishi masalani hal qilish va natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ixtiyoriga bo'lgan vositalarini baholay bilishdir.

Mashq metodi.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish o'qitishning o'ziga xos xususiyati shuki, yangi material bilan tanishish hamda tegishli bilim o'quv va malakalarni hosil qilish o'quvchilar tomonidan mashqlar tizimini, ya'ni, ma'lum topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Mashqlar material mazmuniga va strukturasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin: Mashqlar har xil bo'lishi mumkin: darslikdan olingan va uni o'qituvchi yozdirishi mumkin, odatdagi yoki qiziqarli ko'rinishda, didatik o'yin shaklida va h.k.

Darsda ayniqsa tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar shunday xarakterda bo'ladiki, uning mazmunida oldingi o'quv materialini takrorlash, mustahkamlash va yangi materialni o'rganishga poydevor tayyorlash mumkin bo'ladi. Masalan, o'qituvchi oldin yangi material bilan tanishish asosan o'quvchilar bajaradigan mashqlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Mashqlarni o'rinli bajarishning eng asosiy yo'li ko'rgazmali qilib bajarishdir. Shuning uchun tushunchalar va qonuniyatlar bilan tanishtirishda foydalaniladi.

Mashqlar bajarish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati va zarur vositalar

O'qituvchi faoliyati	Vositalar	O'quvchi faoliyati	Vositalar
Mashq bajarish tartibini ko'rsatib berish, tushuntirish, savol – javob, rahbarlik, nazorat	Masalalar Topshiriqlar Testlar Jihozlar Materiallar Kompyuter Uyga vazifa	Kuzatish tushunish, mashq bajarish, takrorlash, o'zlashtirish, so'zlash, savol – javob, yozish, chizish, hisoblash, harakatlarni bajarish, qurish – yasash, uy vazifasini bajarish, fikrlash va boshqalar	Diqqat Tafakkur Xotira Materiallar Mashq daftari va boshqalar

Mashqlar bajarish o'zlashtirishni mustahkamlaydigan o'quv jarayoni hisoblanadi. Bu mashqlar har bir fanda o'ziga xos mazmunda bo'ladi.

Mashqlar bajarish jarayonida ko'pincha o'quvchining hamma sezgi a'zolari ishtirok etishi bilan uning eslab qolish darajasini oshirish orqali pedagogik imkoniyatlar yanada kengayadi:

O'quvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichlari

O'qitish piramidasi

- | | |
|---|---|
| 1. Ma'ruza, doklad | eshitganimizning 5% |
| 2. O'qish | o'qiganimizning 10% |
| 3. Video, rasm, ko'rgazma
larni qurish | ko'rganimizning 20 % |
| 4. Tajribani namoyish
qilish | ko'rgan va eshitga
nimizning 30% |
| 5. Munozara | birga muhokama qil
Ganimizning 40% |
| 6.mashq | o'qigan, yozgan, gapirgan
Larimiznmng 50% |
| 7.ishbilarmon o'yin,
Loyiha usuli | mustaqil o'qiganlarimiz
ning, tahlil qilganlari
Mizning, muhokama, himoya
Va
Yozganlarimizning, namoyish
Qilganlarimizning 75% |

8. Boshqalarni o'qitish

boshqalarni o'qitgan narsa

Larimizning 90%

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari”ni o'qitishni shakllari

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari”ni o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrini o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari”ni o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan, shaklli darsdir.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'lash bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir. Dars deb, dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tashkil etilgan o'quv ishiga aytiladi. Dars vaqtida o'quvchilar ma'naviyat asoslari fani nazariy ma'lumotga, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv va malakalar singdiriladi.

Odatda darsda bir necha didaktik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni o'tish; o'tilgan mavzuni mustahkamlash; bilimlarni mustahkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustahkam o'quv va malakalar hosil qilish va xoqazo.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish darslarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu – o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar o'qitishning faol metodlarini sinchiqlab tanlash, o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi kabilarga ham bog'liq.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish darsida turli – tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda ko'zatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni,

to'g'ri va aniq so'zlashni va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni engish xislatlarini tarbiyalaydi.

O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.

2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.

4. Sinfidan tashqari mashg'ulotlar.

5. O'quvchilar bilan ishlab chiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu erda sanab o'tilgan ish shakllari va dars bir-birini to'ldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o'qituvchi rahbarlik qiladi. Qo'shimcha mashg'ulotlarda esa ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladi.

O'quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o'zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materialini rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materialini o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini qarasa, u bir necha darslarning o'zaro bog'liqlik o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib ma'naviyat tushunchalarini tushuntirish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz.

Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak.

Darslar sistemasining tuzilishidagi eng katta talab darsning o'quv tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzuchalarga to'g'ri taqsimlashga bog'liq.

Unda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, xususiyl xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Hosil

qilingan bilimlarni doimo bir tizimga keltirish va umumlashtirishni ham ta'minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini anglashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaraladi:

1. Yangi materialni o'qitishga tayyorlash.
2. Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil malakalarni hosil qilish.
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.
5. Bilim va malakalarni tekshirish.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish, o'qitishda mustaqil ishlar.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri bu o'quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanini o'qitish darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik qurishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, o'quv va malakalarni mustahkamlashda shuningdek, bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari”ni o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilar ma'naviyat asoslari darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbqiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda bilimlarni turmushda qo'llash malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus to'zilgan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni hal qilishga o'rgatish;

b) ma'naviyat asoslarini o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan;

v) o'quvchilarni mustaqil ravishda fundamental bilimlarni egallashga o'rgatish;

O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, mustaqil xulosalar qilishga o'rganishlari kerak.

O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilardan nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va x.k. bog'liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” ni o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilardan individual yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish, ma'naviyat asoslari kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ayrim materiallarda (ayniqsa, maktab uchun mo'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir.

“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanidan topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g'oyasiga ko'ra ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sarmahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o'rgatuvchi mashina o'qituvchining intuitsiyasini, ya'ni hissiyotini almashtira olmaydi.

XULOSA

“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”ni o’qitish jarayonida turli usul va vosita hamda shakllardan foydalanish milliy g’oyani singdirishni samaradorligini oshiradi. Bunda bilimlarini aniqlash, o’qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy jarayonlarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo’lishi kerak. Bunday ishlar o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, bilimlarni o’zlashtirishga qiziqishni kuchaytirib boradi.

O’qituvchi dars o’tish jarayonida, amaliy mashg’ulotlarda har bir o’quv qo’llanmani o’quvchilardan tahlil etishni talab qiladi. O’quvchilar har bir o’quv qo’llanma va darslikda mavzular qanday yoritilganligini, ularda nimalar etishmasligini, nimalarni, qanday yangiliklarni qiritish lozimligini va shu fandan muvaffaqiyatli dars o’tishi mumkinligini bilishi kerak.

\

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A Ma’naviy yuksalish yo’lida, - T.: “O’zbekiston”, 1998.
3. Karimov I.A O’zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo’lmaydi, 13-tom, - T.: “O’zbekiston”, 2005.
4. Risqiyev T.T Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, - T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
5. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar(izohli va ko’rgazmali vositalar) - T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
- 6.Oripova M. Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”ni o’qitish metodikasi. Buxoro-2010.